



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi • digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Hamburg, Germany, 2026 Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

**Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari****Toshtemirova Baxtigul Kimsanboy qizi**

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-22-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish usullari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ijtimoiy faollikni rivojlantirish hamda tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda o'qituvchining roli tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llaniladigan pedagogik usullar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tarbiyaviy ishlar, pedagogik usullar, ma'naviy tarbiya, shaxs rivoji.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные методы организации воспитательной работы в начальном образовании. Также анализируются эффективные педагогические подходы, способствующие формированию нравственных, эстетических и социальных качеств у младших школьников. Подчеркивается роль учителя в организации воспитательного процесса и развитии личности ребенка.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, методы воспитательной работы, педагогика, развитие личности.

Annotation. This article discusses the main methods of organizing educational and moral activities in primary education. It analyzes effective pedagogical approaches that contribute to the development of moral, aesthetic, and social qualities of primary school students. The role of the teacher in organizing educational work and developing students' personalities is also emphasized.

Keywords: primary education, upbringing, educational methods, pedagogy, personality development.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida barkamol avlodni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim poydevor hisoblanadi. Shu davrda o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va jamiyatga moslashish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, ijodkorlik hamda zamonaviy metodlardan foydalanishni talab etadi. Tarbiyaviy ishlar orqali o'quvchilarda



vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlar shakllantiriladi.

Boshlang'ich ta'lim – ta'lim va tarbiyaning bosh poydevoridir. Ushbu poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa imorat shunchalik mustahkam bo'lgandek, mukammal boshlang'ich ta'lim bilimlariga ega bo'lgan o'quvchilar kelgusida yuqori sinflarda hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladilar.

Ta'lim muassasining tarbiyaviy vazifasi birinchi navbatda, o'quvchilarda, o'zini shu dunyoda anglab yetish, boshqalar orasida o'z o'rnini topish bilan dunyoga, madaniyatga, atrof-muxitga qadriyatlarini shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o'qitish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan dam olish doirasidagi o'yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog'lik. Shunday qilib, xususan tarbiya tizimi innovatsiyalarini o'rganish imkoniyati paydo boladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida, har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda turli pedagogik usullardan foydalaniladi. Ushbu usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va psixologik rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tanlanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda bir necha metodlarni ko'rib chiqamiz.

Suhbat usuli tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bu usul orqali o'qituvchi o'quvchilar bilan bevosita muloqotga kirishadi, ularning fikrlarini tinglaydi hamda muayyan mavzu yuzasidan tushunchalar beradi. Masalan, "Vatan", "Do'stlik", "Halollik", "Mehr-oqibat" kabi mavzularda tashkil etilgan suhbatlar o'quvchilarda ijobiy fazilatlarini rivojlantiradi.

Namuna ko'rsatish usulida boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq taqlid qilish orqali o'rganadilar. Shu sababli o'qituvchining shaxsiy namunasini ko'rsatishi tarbiyaviy jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'zining xulqi, muomalasi va madaniyati orqali o'quvchilar uchun namuna bo'lishi kerak.

Rag'batlantirish usulida esa o'quvchilarning faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqtov, kichik sovg'alar yoki rag'batlantiruvchi so'zlar orqali o'quvchilarning yaxshi xulq-atvori mustahkamlanadi. Bu usul bolalarda o'ziga ishonchni kuchaytiradi.

O'yin usuli boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin muhim faoliyat turlaridan biridir. Didaktik o'yinlar orqali bolalarda ham bilim, ham tarbiyaviy sifatlar shakllantiriladi. O'yin jarayonida o'quvchilar hamkorlik qilish, bir-biriga yordam berish va jamoada ishlashni o'rganadilar.



Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashkari tadbirlarga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlar, ularning ahamiyatliligi, ijtimoiy xarakterga e'tibor berish kerak masalan: ertak va maqollar vositasida, tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar.
2. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida doimiy ravishda rag'batlantirish.
3. Darsdan tashkari tadbirlar orqali o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini topish.
4. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta'sirida ba'zi o'quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda mustahkamlash maqsadida turli ertaliklar, kechalar, bellashuvlar o'tkazishni maqsadga muvofiq deb biladi. Buning uchun, avvalo o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, va urf-odatlar haqida bolalarga tushuncha hosil qilish, vatan haqidagi sherlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlari chizgan vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarini tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'riladi. Milliy bayramlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatan, tabiat va jonzoatlarga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur va iftixor hissini shakllaniradi. Bu kabi tarbiyaviy tadbirlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshadi, dunyo qarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlarni mustahkamlaydi, bunday tadbirlar ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda suhbat, namuna ko'rsatish, rag'batlantirish va o'yin kabi pedagogik usullardan foydalanish katta samara beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtayev O.X. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. – Samarqand, 2020.
2. Avliyakov N.X. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Qodirova F., Toshpo'latova Sh. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2015.

